

**OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.21/30.10.2020. Ped/S.127.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

DJABBAROVA XABIBA KUVANDIKOVNA

GENDER TENGLIKNING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy
(PhD) on philosophical sciences**

Djabbarova Xabiba Kuvondikovna

Gender tenglikning ijtimoiy-falsafiy tahlili3

Джаббарова Хабиба Кувандыковна

Социально-философский анализ гендерного равенства23

Djabbarova Habiba Kuvondikovna

Social-philosophical analysis of gender equality

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works

**OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.21/30.10.2020. Ped/S.127.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

DJABBAROVA XABIBA KUVANDIKOVNA

GENDER TENGLIKNING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fal811 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.moiti.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bozorov Mustafo Jabborovich
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponenlar:

Musayeva Nodira Maxmudovna
falsafa fanlari doktori, dotsent

Saydivaliyeva Xurshida Xodjiakbarovna
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD21/30.10.2020.Ped/S127.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil « ____ » _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Istiqlol ko'chasi, 51-uy. Tel.: (71) 267-05-36; faks: (71) 267-03-92; e-mail: mvaointi@exat.uz, mvaointi@gmail.com

Dissertatsiya bilan Oila va gender ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan.). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Istiqlol ko'chasi, 51-uy. Tel.: (71) 267-05-36; faks: (71) 267-03-92; e-mail: mvaointi@exat.uz, mvaointi@gmail.com

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « ____ » _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil « ____ » _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

N.M.Egamberdiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

S.K.Alimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

O'.G'.Tilavov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar yaratish, global gender tengsizligiga barham berish bilan bog‘liq muammolar uzoq tarixiy jarayonni boshidan kechirgan bo‘lib, bugungi kunda ushbu mavzu doirasidagi munozaralar ijtimoiy-falsafiy tafakkurda ham o‘z aksini topib bormoqda. Jahon hamjamiyati gender tenglik bu faqat huquqiy holat emas, balki siyosat, din, falsafa, turli ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq holat ekanligini anglab yetmoqda. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarida gender tengligini ta‘minlash, barcha ayol va qizlarning huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish masalasi alohida maqsad (5-maqsad) sifatida belgilab qo‘yilishi ham gender tengligining global zaruratga aylanib borayotganligini ko‘rsatib bermoqda.

Dunyoda ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta‘minlash, gender statistika, gender audit, gender ekspertiza, gender baholash, gender monitoring kabi genderni doir kompleks yondashuvning asosiy usul va vositalarini joriy etish bilan bog‘liq masalalarda tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ijtimoiy muammolarni tadqiq etuvchi ilg‘or “aql markazlari”da gender tengligini ta‘minlash, gender tengligining mintaqaviy va milliy xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga katta e‘tibor qaratilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish jarayonida ayollarning mas‘ulligini yanada oshirish yo‘llarini aniqlash va amaliy tavsiyalar berish kabi dolzarb masalalar ijtimoiy-gumanitar fan sohasi, qolaversa, jamiytdagi barcha sohalarining oldida turgan muhim tadqiqot mavzularidan biri bo‘lib kelmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeyini yanada oshirish, ularning huquqlari va imkoniyatlarini qadriyat sifatida himoya qilish, bir so‘z bilan aytganda Yangi O‘zbekistonda davlat boshqaruvi hamda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida gender tenglik tamoyili davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. “Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta‘minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi”¹. Shu bilan birga, ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni yaratish, gender tengsizligi, gender zo‘ravonlik kabi salbiy holatlarni bartaraf etish ham dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-561-son “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”, O‘RQ-562-son “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 7-martdagi PF-87-son “Oila va xotin-qizlarni

¹ Mirziyoyev Sh. Munis onalarimiz, mehribon opa-singillarimiz – hayotimiz gultoji. // Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari, 4-tom. Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B. 406.

tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 21-dekabrda PF-208-son “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 1-martda PQ-146-son “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”, 2023-yil 21-dekabrda PQ-401-son “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-mayda SQ-297-IV-son “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jamiyatda gender tengligiga doir konseptual g‘oyalar metodologik asos sifatida barcha davrlarda faylasuflar, huquqshunos olimlar tomonidan rivojlantirilib kelingan. Xotin-qizlarning maqomi, turmush tarzi, ijtimoiy faolligi G‘arb va Sharq falsafiy tafakkur taraqqiyotda ustuvor yo‘nalishni belgilab bergan. Antik Yunon, Rim mutafakkirlari xotin-qizlarning ijtimoiy hayoti va foydali faoliyatiga oid manbalarida ayollarning ijtimoiy va siyosiy faolligi xususida ma‘lumotlar keltirilgan¹. Jumladan, Yunonistonda ayollar maqomi bo‘yicha bahslar, munozarali fikrlar orasida Arastuning ayollarning biologik jihatdan erkaklarga nisbatan quyi turishini ta‘kidlagan, lekin Aflotun ayollar biologik jihatdan erkaklar bilan tengligi haqida g‘oyalarni olg‘a surgan². Qadimgi Hindistonda ayol turmush qurish, meros va boshqa hech qanday huquqqa ega emasdi. Manu qonunlarida shunday deyiladi: “Ayollarni ahmoqona odatlardan asrash kerak, ularni diqqat-e‘tibordan qochsangiz oilaga baxtsizlik keltiradilar”³.

Jamiyatda gender tengligini ta‘minlashning ma‘naviy-axloqiy mexanizmlari, jamiyatni barqarorlashtirishdagi konstruktiv roli “Avesto”da, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abdurauf Fitrat singari Sharq allomalarining asarlarida aks etgan. Jumladan, zardushtiylik dinining muqaddas “Avesto” kitobida oila mustahkamligi ayol erki, xotin-qizlarning jamoat ishlari, ibodat marosimlarida erkaklar bilan teng ishtiroki ham alohida ta‘kidlangan⁴. Xuddi shunday fikrlar Forobiy inson kamoloti, baxti, ta‘lim va tarbiyasi, axloqi, dinga munosabati haqidagi qarashlari, xususan, ayol va erkak konsepti bo‘yicha mulohazalarini mashhur “Fozil odamlar shahri”⁵; Beruniyning “Minerologiya” asarida oiladagi tinchlik-totuvlik,

¹ Женщина в древнем обществе// <https://moluch.ru>archive>

² Аристотель // <https://ru.m.Wikipedia.org>wiki>

³ Плоссь Г. Женщина. Изд. Перя-М.А.А. ГИПП "Вятка" Сыктывкар-Киров, 1995. -Т.2. - С. 544.

⁴ Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Аскар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарк, 2001. –Б.366-369.

⁵ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. - Т.: Абдулла Кодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.- 224 б.

baxtiyorlik ko‘proq ayollar zimmasiga tushishini ta’kidlaydi¹. Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida oila saodatli, baxtiyor bo‘lsagina millat baxtli bo‘ladi aks holda bu millatning baxtiyor hayot kechirishi, saodati xavf ostida qolishini ta’kidlaydi². Jamiyatning obyektiv qonuni bir ayol va bir erkak juftidir deya Turkiston jadidlari orasida birinchi bo‘lib gender masalasini ko‘tarib chiqdi.

Qur’oni Karim va Hadislarda ayollarga yaxshi muomala qilish, ularni hurmat qilish, ularga hurmat ko‘rsatish haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lib, ayollarga nisbatan bunday munosabatni islomdan boshqa dinda uchratish qiyin³. Jumladan, Ibn Sinoining “Oila tadbiri” nomli risolasida “ayollarning eng yaxshisi urning orqasida va yo‘qligida vafodor bo‘ladi”⁴ deyilgan. Uning fikricha, agar ayol aqlli bo‘lsa, o‘z erining ishonchli do‘sti va hayotda eng birinchi yordamchisi bo‘ladi, bevafo er-xotinlar esa oilani halokatga olib boradi, deb asoslaydi.

XIX asrda AQSh va Yevropada erkak bilan ayolning teng huquqliligini ta’minlashga doir feminizm harakati dunyo bo‘ylab tarqaldi. Xususan, nemis olimi R. Xof jinslararo munosabat tizimi va boshqa ichki madaniy nuqtayi nazarlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni⁵, Z. Freyd esa jinsiy o‘ziga xoslikni⁶, E. Fromm ikki jins vakillarining tabiati va xususiyatlari⁷ni tadqiq qilganlar. Turkiyalik olimlar Y. Ishik va K. Koch XIX asr oxiri va XX asr boshlarida turkistonlik xotin-qizlarning ijtimoiy hayotini falsafiy jihatdan tahlil etilgan⁸. G‘arb feminizmi va Sharq feminizmi bilan bog‘liq ayrim muammolar o‘rganilgan. Ammo ularda mentalitet, etnomadaniy an’anaviy stereotiplarning xotin-qizlarga ta’siri yetarlicha hisobga olinmagan.

MDH ijtimoiy-gumanitar fanlarida gender tengligini ijtimoiy-falsafiy, siyosiy jihatdan tahlil qilishda rossiyalik qator olimlar hamda tadqiqotchilarning roli katta. Ular qatoriga N. Berdyayev⁹, Y. Zdravomislova, A. Temkina, A. Potapenkova, O. Voronina, Y. Stebunova¹⁰ kabi olimlar xotin-qizlarning ijtimoiy faollashuvi, erkaklar bilan ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi ulushi, ta’lim va biznes

¹ Арапбаева Д.К., Арапбаева В.К. Шарқ мутафаккирларининг оила ва тарбия ҳақидаги қарашлари. -Тошкент: Замоновий таълим, 2015. <https://cyberleninka.ru/article/n/shar-mutafakkirlarining-oila-va-tarbiya-a-idagi-arashlari/viewer>

² Fitrat. Tanlangan asarlar. I jild. - Тошкент: Ma’naviyat, 2000. – 48-b.

³ Қуръони карим оятлари мазмун маъносининг ўзбекча изоҳли таржимаси / тарж. А. Иноятов. –Тошкент: Hilol-nashr. 2022. -688 б.

⁴ Турдибоев Н. Ибн Синонинг илм ва ахлоққа доир баъзи рисолалари // Таржимон ва шарҳлар муаллифи. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2009. –24 б.

⁵ Хоф Р. Возникновение развитие гендерных исследований / Пол.гендер, культура. - М.: РГТУ. 1999. -С. 24- 43.

⁶ Freud Z. Zur Psychopathologie des Alltagslebens 1926; О психоанализе. - М.: 1998;

⁷ Фромм Э. Мужчина и женщина. – СПб: Питер, 1999. – С. 94.

⁸ Işik, Yasemin; Koç, Kübra. Yüz yıl insanları 20. Yüz yılın başlarında (1880-1930) Turkestan sureli yayınlari ve kadin konusuna yaklaşımlari / The periodicals in Turkestan during the late 19th and early 20th centuries (1880- 1930) and their approaches to the women issue // Karadeniz Arastirmalari: Journal of Black Sea Studies; Ankara Issue. 74, (Summer 2022): 493-514.

⁹ Бердяев Н. А. Философия свободы. Смысл творчества. –М: 1989. - С. 42.

¹⁰ Здравомыслова, Е. Социология гендерных отношений и тендерный подход в социологии // Социологическое исследование - 2000. -№ 2. -С. 15– 23; Темкина А.А. Теоретические подходы к проблеме политического участия: тендерное измерение // Тендерное измерение социальной и политической активности в переходный период. Вып. 4. – СПб.: СПбГУ, 1996. – С. 13-18; Потепенкова А.А. Социально-философский анализ гендерных отношений в современном обществе. Автореф. на соис.уч.с.канд. ф. н –Москва. -2006 г. Воронина О.А. Формирование тендерного подхода в социальных науках // Тендерный калейдоскоп. - М.: 2007. - С. 8-33; Стебунова Е.И. Феномен Гендера: социально-философский анализ. Автореф. на соис.уч.с.канд. ф.н – Челябинск. -2012 г.-16-17 с. и др.

sohalarida ishtiroki muammolarining fundamental tizimli tadqiqotlarini amalga oshirmoqdalar.

O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy va jismoniy faolligi ilmiy-falsafiy nuqtayi-nazardan juda kam o‘rganilgan. Ularning ayrim jihatlari ijtimoiy-gumanitar izlanishlarda V. Alimasov, S. Axrarova, gender-huquqiy ekspertiza bo‘yicha M. Qodirxonova, G. Sattarova, O. Izzatullayev, gender tengligi muammosining nazariy-amaliy aspektlari bo‘yicha M. Xoliqova, G. Ishanxonova, Sh. Po‘latovalar, O‘zbekistonda gender tengligiga erishish va zo‘ravonlikning oldini olish borasida K. Aliyeva, D. Rashidova, M. Choxeli, M. Raximova, G. O‘razaliyeva¹ kabilar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Yuqorida qayd etilgan adabiyotlar tahlili gender tenglikning ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil jarayonida metodologik va munozarali jihatlari obyektiv baholash uchun tadqiqot mavzusini tanlash imkonini beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-2020022811-raqamli “O‘zbekiston hududlaridagi tarixiy-madaniy an‘analar va ularning zamonaviy ko‘rinishlarini targ‘ib etuvchi platforma yaratish” (2020-2022) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jamiyatdagi gender tenglik fenomenini ijtimoiy falsafa nuqtayi nazaridan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

postmodern jamiyatda gender fenomeni va gender tengligi hodisasining o‘ziga xosligini ifodalovchi komponentlarini, genezisi, manbalari va mezonlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish;

gender stereotiplarining ijtimoiy taraqqiyotga nisbatan salbiy, destruktiv, manipulyativ tomonlarini inobatga olgan holda o‘ziga xos jihatlari tadqiq etish;

O‘zbekistonda demokratik, fuqaroviy jamiyat va huquqiy davlat barpo etish jarayonida ayollarda huquqiy ong, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, gender tengligini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

gender tengligining Sharq va G‘arbda aks etishining umumiy va xususiy jihatlari tadqiq etish hamda gender tengligini ta’minlashga oid ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini sifatida gender tengligi fenomenini tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini gender tengligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, sotsiologik so‘rov singari usullardan foydalanilgan.

¹ Alimasov V.A. Gender falsafasi. -T.: Falsafa va Huquq, - 2008.- 24-b.; Axrorova S. O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faollashuvi va jamiyat taraqqiyotiga ta’siri. Fal. fan. doktori (DSc) avtorref. –Toshkent: 2023. – 15-b; Qodirxonova M., Sattarova G. Izzatillaev O. Gender-huquqiy ekspertiza b‘yicha amaliy k‘ullanma. –Toshkent: 2022.-7-b; M.Xoliqova, G.Ishanxonova, Sh. P‘latova. Gender tengligi: foydan qonungga qadar. Usulbiiy k‘ullanma. –Toshkent: 2021.- 14 b; Aliyeva K., Rashidova D., Choxeli M., Raximova M. Gender z‘vavonligi b‘yicha tadqiqot natijalari: milliy tajriba va xoriжий amaliyot. –Toshkent: 2022.- 37 b; G. O‘razaliyeva. Gender va ayollar huquqiy madaniyati. –Toshkent: 2009.-31-34-b.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ijtimoiy hayotda ayollar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta'minlashda gender rollar taqsimoti, ijtimoiy gender identiklik kabi sotsiomadaniy determinantlarning gender sezuvchanligini oshirish jarayonida ijtimoiy-kognitiv idrok etish, nazariy va amaliy faoliyat dialektikasi kabi usullarining ustuvorligi falsafiy jihatdan asoslangan;

ijtimoiy adolat, gender tenglik va empatiya tamoyillarini shakllantirishda inklyuziv pedagogika va ijtimoiy-madaniy aksiologiya sintezi orqali ta'lim tizimini transformatsiya qilish, media madaniyatida gender yondashuvni takomillashtirish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish kabi ta'sir mexanizmlarining gender stereotiplarga qarshi kurashishdagi intensiv samaradorligi isbotlangan;

gender tengligini institutsional qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy hamkorlik va gender madaniyatni takomillashtirish kabi sotsiomadaniy muhitga ta'sir qiluvchi regulyativ determinantlarning tizim va element o'rtasidagi dialektik munosabati hamda miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonuniga asosan gender aspektida individual ong transformatsiyasiga olib kelishi aniqlangan;

G'arb va Sharq ijtimoiy tafakkurida gender tenglik va feminizmning in'ikosi, tarixiy, madaniy, falsafiy, ideologik kontekst asosida shakllangan gender evolyutsiyasi, gender madaniyatning sivilizatsiyaviy, sakral, aksiologik, gnoseologik mazmundagi plyuralizmi, gender qadriyatlarining milliy va mintaqaviy differentsiatsiyasi kabi omillarga ko'ra gender tengligining milliy mentalitetga xos xususiyatlarga tayanishi zaruriyati falsafiy jihatdan ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

global ijtimoiy taraqqiyotda gender tengligining zaruriyati, dunyo xalqlarining barqaror rivojlanish jarayonida ayollar haq-huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq ustuvor vazifalari tadqiq etilib, zamonaviy jamiyatda ayollar mavqeyiga ta'sir etuvchi segregatsiyalarini bartaraf etishning ijtimoiy mexanizmlari ko'rsatib berilgan;

gender tengligini ta'minlashda milliy mentalitetga xos, identik jihatlarni inobatga olish zaruriyati asoslanib, uning asosida mamlakatimizda gender tengligini ta'minlashga oid yangi zamonaviy modellarni shakllantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama qilingani, OAK ro'yxatidagi tegishli jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan konstruktiv ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalardan ijtimoiy-gumanitar fanlar – ijtimoiy falsafa, gender sotsiologiya kabi fan tarmoqlarini ilmiy jihatdan boyitishi hamda sohaga oid olib boriladigan tadqiqotlar hamda soha mutaxassislarining gender fenomeni va gender tengligi bilan bog'liq ma'ruzalari uchun nazariy manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilgari surilgan taklif-tavsiyalardan gender tengligini ta'minlash bo'yicha faoliyat yurituvchi davlat va jamiyat

boshqaruvi tizimining barcha sohaları faoliyati, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan – O'zbekiston tarixi, ijtimoiy falsafa, falsafa, huquqshunoslik, sotsiologiya fanlari bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Gender tenglikni ijtimoiy falsafiy tahlil qilish jarayonlariga oid ishlab chiqilgan ilmiy natijalar asosida:

ijtimoiy hayotda ayollar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta'minlashda gender rollar taqsimoti, ijtimoiy gender identiklik kabi sotsiomadaniy determinantlarning gender sezuvchanligini oshirish jarayonida ijtimoiy-kognitiv idrok etish, nazariy va amaliy faoliyat dialektikasi kabi usullarining ustuvorligi falsafiy jihatdan asoslanganligiga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan bajarilgan "Oliy ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish va boshqarishning nazariy-metodologik asoslari" mavzusidagi ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasining 2023-yil 24-martdagi 02-01/262-son ma'lumotnomasi). Dissertatsiya yangiligi, taklif va tavsiyalaridan foydalanish oliy ta'lim tizimiga gender yondashuv tamoyillarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

ijtimoiy adolat, gender tenglik va empatiya tamoyillarini shakllantirishda inklyuziv pedagogika va ijtimoiy-madaniy aksiologiya sintezi orqali ta'lim tizimini transformatsiya qilish, media madaniyatida gender yondashuvni takomillashtirish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish kabi ta'sir mexanizmlarining gender stereotiplarga qarshi kurashishdagi intensiv samaradorligi isbotlanganligiga oid fikr va mulohazalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2023-yilning 10-fevral kuni soat 07.00 da efirga uzatilgan "Assalom, Samarqand" ko'rsatuvining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 15-fevraldagi 01-07/42-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijalaridan foydalanish ko'rsatuv va radio eshittirishni mazmunan takomillashtirishga xizmat qilgan.

gender tengligini institutsional qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy hamkorlik va gender madaniyatni takomillashtirish kabi sotsiomadaniy muhitga ta'sir qiluvchi regulyativ determinantlarning tizim va element o'rtasidagi dialektik munosabati hamda miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonuniga asosan gender aspektida individual ong transformatsiyasiga olib kelishi aniqlanganligiga oid taklif, tavsiya va mulohazalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2023-yilning 10-fevral kuni soat 07.00 da efirga uzatilgan "Assalom, Samarqand" ko'rsatuvining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 15-fevraldagi 01-07/42-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijalaridan foydalanish xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish hamda ahamiyati keng jamoatchilik orasida targ'ib qilishga xizmat qilgan.

G'arb va Sharq ijtimoiy tafakkurida gender tenglik va feminizmning in'ikosi, tarixiy, madaniy, falsafiy, ideologik kontekst asosida shakllangan gender evolyutsiyasi, gender madaniyatning sivilizatsiyaviy, sakral, aksiologik, gnoseologik mazmundagi plyuralizmi, gender qadriyatlarining milliy va mintaqaviy differentsiatsiyasi kabi omillarga ko'ra gender tengligining milliy mentalitetga xos

xususiyatlarga tayanishi zaruriyati falsafiy jihatdan ochib berilganligiga doir taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-64 sonli “Oilalarga ko‘rsatilayotgan sifatli va tezkor ijtimoiy xizmatlar uchun mobil ilova yaratish” mavzusidagi innovatsion loyiha vazifalarini bajarishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 13-fevraldagi 04/11-738-son ma‘lumotnomasi). Dissertatsiyadagi taklif va tavsiyalar loyihani yanada takomillashtirishga va xotin-qizlarning oiladagi ahvoli va dunyoqarashlari, bajarayotgan reproduktiv vazifalarini hisobga olib, ular o‘rtasida olib borilayotgan huquqiy-ma‘rifiy tadbirlarda zamonaviy uslublardan foydalanishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 7 ta maqola (jumladan, 4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 135 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Gender nazariyasining falsafiy-metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobi ikki qismdan iborat bo‘lib, mazkur bobda gender fenomenining genezisi, substansional komponentlari, evolyutsiyasidagi transformatsiya jarayonlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu bobda gender tengligining tarixiy ildizlari, turli taraqqiyot davrlarida gender tengligiga nisbatan farqli munosabatning shakllanganligi, olimlar tomonidan genderning shakllanishida tarixiy va ijtimoiy sharoit, uning tarixidan boshlab bugungi kunga qadar rivojlanish va namoyon bo‘lish shakllari, ijtimoiy xususiyatlarini o‘rganishga oid ilmiy xulosalar asosidagi turli yondashuvlar, gipotezalar, paradigmalari yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning ushbu bobida gender nazariyasining asosiy tushunchalari, jins va gender, mazkur ikki tushuncha belgilab beradigan ijtimoiy maqom, gender asimmetriyasi, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalarida gender tengligi namoyon bo‘lishining asosiy xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur bobda gender fenomenining ichki va tashqi rivojlantirish omillari, o‘tmishda va bugungi kunda namoyon bo‘lishi xususiyatlari, ijtimoiy zarurati hamda boshqa ijtimoiy

jarayonlarga ta'siri kabi yo'nalishlar bo'yicha ilmiy va falsafiy qarashlar, yondashuvlar keltirilgan.

Mazkur bobda genderning evolyutsiyasiga e'tibor qaratib, "gender" atamasi ijtimoiy jins, madaniyatga aloqador tushuncha sifatida paydo bo'lganiga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da (1975-yil), bu xususda fanda antik davrda ham bir qator g'oyalar va izlanishlar mavjud bo'lganligiga e'tibor qaratilgan. Gender nazariyasining tarixi antik davrga (miloddan avvalgi V - IV asrlar) to'g'ri keladi. Aflotun, Arastu va Suqrotning nomlari fallotsentrizmning falsafiy tamoyilining asosini tashkil etgan patriarxal falsafiy an'ananing shakllanishi bilan bog'liq. Uning mohiyati erkakning ratsional, ayolning irratsional bilan ramziy bog'lanishida edi.

Tadqiqotda klassik faylasuflar asarlarida "jins", "erkak" va "ayol" fenomenining asosiy substansional komponentlari falsafiy tahlil qilinganligi, ularning ta'limotlarida "ayol muammosi"ni o'rganishga alohida e'tibor qaratilganligi ko'rsatib o'tilgan.

Azal-azaldan ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarning mavjud bo'lishi masalasiga nisbatan salbiy qarashlar shakllangan. Yangi paydo bo'lgan dinlar ham ayollarga nisbatan ijtimoiy noteng munosabatni va qoidalarni mustahkamlagan. Milodning II asrida xristian dini ayol bilan nikohda bo'lishni "Shaytonning ishi" sifatida ta'riflab, hatto nikohdagi ayol va erkakning yaqin munosabatda bo'lishdan voz kechish, pok bo'lishga targ'ib qildi.

Mazkur bobda gender tengligini ta'minlashda faqat ayollarning emas, ba'zi holatlarda erkaklarning huquqlari himoya qilinishi zarurligiga ham e'tibor qaratilgan. Misol uchun, Hindistonda ayolning erkakka nisbatan tazyiq o'tkazish holatlari qonun tomonidan tan olinmagan bo'lsa-da, hayron qolarli natijalar olingan. 2019-yilda Hindistonning Xaryana qishlog'ida 21-49 yosh oraliqidagi 1000 nafar erkak orasida tadqiqot¹ o'tkazilgan. Respondentlarning 51,6 foizi hissiy zo'ravonlikni, 6 foizi esa jismoniy zo'ravonlikni boshdan kechirishgani aniqlangan. Hattoki, 1875-yilda Kalkuttada yaratilgan "Kaltaklangan er sindromi" nomli rasmda erkakni supurgi bilan urayotgan ayol tasvirlangan.

Gender deganda erkaklar va ayollarning ijtimoiy xulq-atvori, shuningdek, jinslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi tushuniladi. Tadqiqotlarda ayollar va erkaklar huquqlarining tengsizligi sabablarini tahlil qilishi natijasida biologik jins (ingl. sex) va u bilan bog'liq ijtimoiy rol (ingl. gender) farqlana boshladi, ya'ni gender atamasi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, erkak va ayolning ijtimoiy rollaridagi farqni o'zida aks ettiradi.

Tadqiqotning mazkur bobida zamonaviy jamiyatda ilmiy tadqiqotchilar tomonidan "gender" fenomeni va u bilan bog'liq "gender tenglik", "gender munosabatlar", "gender madaniyat", "gender sotsiologiya", "gender taraqqiyot" hamda "gender falsafasi" kabi atamalarni ishlatilayotganligiga e'tibor qaratilib, keyingi yigirma yilni "gender izlanishlari davri" deb atash mumkinligi haqida xulosa qilingan.

Gender falsafasi quyidagi xususiyatlari bilan gender masalasini tadqiq etuvchi boshqa yondashuvlardan ajralib turadi:

¹ <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC6437789/>

- gender munosabatlarini insonning yaxlitligi, butunligi nuqtayi nazaridan kelib chiqib o‘rganadi;
- gender munosabatlariga inson munosabatlari deb qaraydi;
- ijtimoiy munosabatlarning determinizmidan kelib chiqib tadqiq etadi;
- ayol va erkak munosabatlarining murakkabligini tan oladi, lekin shu bilan birga ularning ijtimoiy munosabatlardan farq qiluvchi jihatlari borligini unutmaydi;
- ayol va erkakning borliqdagi o‘rni, vazifalarining umumiy va xususiy jihatlardan, olam va odam o‘rtasidagi garmoniyani asrashdan, inson manfaatlarining ustuvorligidan kelib chiqadi, taraqqiyot normalarining barchaga teng taalluqliligini e‘tirof etadi.

Ushbu bobda gender fenomenining o‘ziga xos xususiyatlariga e‘tibor qaratilib, mazkur fenomenni bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha komponentlardan iborat hodisa deb qaramoq lozimligiga urg‘u berilgan. Mazkur komponentlar sifatida quyidagilar e‘tirof etilgan:

1) jins (sex) – biologik kategoriya sifatida, ya‘ni, genitativ va irsiy belgilar, o‘smirlik va balog‘at yoshida ishlab chiqariladigan garmonlar xususiyati bilan belgilanadi.

2) jins (sex) – ijtimoiy kategoriya sifatida, tananing fiziologik-jinsiy tuzilishga asoslanadi va chaqaloq tug‘ulganidanoq atrofdagilar tomonidan identifikatsiya qilinadi.

3) jins (gender) – ijtimoiy jarayon sifatida xulq-atvor paydo bo‘lishi, o‘z o‘rnini (rolini) egallashga, ma‘lum jinsga taalluqli ekanligi biologik kategoriya bilan belgilanishiga o‘rgatish jarayoni.

4) jins (gender) – mavqe va tuzilma sifatida individning gender mavqeyi – jamoat tuzilmasining bir qismi ko‘rinishidagi jinslar o‘rtasidagi munosabatlarni, ayniqsa “hokimlik” va “tobelik” munosabatlarini belgilaydi.

5) jinsiy (sex-gender) – taqqoslash, ya‘ni individning o‘zini u yoki bu jinsga taalluqli ekanligini his qilishi va anglashi.

Bobning ikkinchi paragrafida gender identifikatsiyaga ijtimoiy-falsafiy jihatdan yondashilib, uning jinsiy identifikatsiya bilan dialektik aloqadorligiga e‘tibor qaratilgan. Xususan, biologik jins (jinsiy identifikatsiya) inson tabiatining tub jihati sifatida erkak va ayolni ajratib turadigan jinsning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini anglatadi:

- genetik (erkak, ayol xromosomalari);
- gormonal (jinsiy gormonlar, estrogen, androgen);
- somatik (gavda tuzilishi);
- gonadal (reproduktiv faoliyat);
- fiziologik (erkak va ayol organizmida yuz beradigan jarayonlar).

Gender identifikatsiya insonning jinsini tasdiqlovchi turli belgi, holatlardan kelib chiqib o‘z ongi va xulqini muayyan jinsning ijtimoiy xususiyatlariga yo‘naltirishi hamda o‘sha jinsga oid ijtimoiy rollarga muvofiqlashtirishga imkon beruvchi jarayondir. Dastlabki gender identifikatsiya shaxs taraqqiyotining 1,5-2 yoshlarida shakllana boshlaydi, 3-4 yoshlarga borib, u yoki bu jinsga taalluqli bo‘lgan somatik va xulq-atvor me‘yorlari ijtimoiy tasavvurlar doirasida yo‘nalganlik xususiyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayon o‘ta murakkab bo‘lib, unda shaxsning ichki

tugʻma belgilariga asoslangan tasavvurlar tizimi va tashqi muhitdagi unga aloqador boʻlgan shartli signallar oʻrtasida murakkab aloqa oʻrnatiladi hamda ushbu omillarning oʻzaro dinamikasi kuzatiladi. Identifikatsiya jarayonidagi ushbu ikki manba – tashqi muhitdan kelayotgan belgilar, ijtimoiy munosabat, shaxsning ichki ruhiyatidagi nasliy va somatik tizimi oʻrtasida oʻzaro uygʻunlik hamda muvofiqlik yaratiladi.

Bunday muvofiqlik, yaʼni insonning ichki tizimi va tashqi muhitning ayrim belgisi oʻrtasidagi qisqa muddatli tugallangan oʻzaro moslik rus adabiyotida “идентичность” atamasi bilan ifodalanadi. Nazarimizda aynan shu iborani oʻzbek tilida “muvofiqlik” soʻzi bilan ifodalashimiz va ushbu muvofiqlikni taʼminlovchi jarayonni esa identifikatsiya deb atashimiz oʻrinlidir. Umuman olganda, identifikatsiya soʻzining lugʻaviy maʼnosi “oʻzaro muvofiq kelish”, “mos kelish” maʼnosini anglatadi. “Erkaklarga xos” yoki “ayollarga xos” tushunchalarni aniqroq farqlash uchun “femininlik” (ayollik) va “maskulinlik” (erkaklik) tushunchalari qabul qilingan.

Bobda shuningdek identifikatsiya mavzusi boʻyicha faoliyat yuritgan olimlar – Z.Freyd, M.Klayn, K.X.Kxeli, E.Erikson, A.Freyd, K.Xorni kabi olimlar shaxsning oʻzligini anglashidagi ilk bosqichlar haqida ahamiyatli izlanishlarni olib borganligi, XX asr oʻrtalaridan keyin shaxs identifikatsiyasini tadqiq etish muhim mavzuga aylanganligi, turli xil nazariyalar ushbu jarayondagi ijtimoiy mazmuni yoritishga koʻproq eʼtibor qaratayotganligi boʻyicha maʼlumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Sharq va Gʻarb ijtimoiy dunyoqarashida gender tengligining shakllanish determinatsiyasi”** deb nomlangan boʻlib, ushbu bobda Sharq va Gʻarb falsafasida “erkak” va “ayol” konseptining tahlili, mutafakkirlari merosida alohida oʻrin tutgan tenglik, xususan, gender tengligi boʻyicha qarashlari ochib berilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafida Sharq falsafiy tafakkurida gender tengligining tadrijiy rivojlanishi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Sharq xalqlarida ham ayolga munosabat doimo bir xil kechgan emas, xususan, Mesopotamiya va unga yaqin hududlarda yashagan Shumer xalqining odatiga koʻra, ayol eriga: “Sen mening erim emassan” desa, yaʼni ajrashishni istasa, u ayol daryoga tashlanib oʻldiriladi edi. Erkak xotiniga: “Sen mening xotinim emassan” deydigan boʻlsa, erkak ayolga bir miqdor kumush pul berishi lozim edi, xolos. Albatta, bunday gender jihatdan tengsiz munosabat ayollarning maʼnaviy-ruhiy holatiga kuchli taʼsir etmay qolmagan. Ayollar har qanday zoʻravonlik va adolatsizliklarga sabr-toqat bilan yashashga majbur boʻlganlar.

Tadqiqotda Hindiston tarixiga ham murojaat qilingan boʻlib, mazkur mintaqada madaniyat taraqqiyoti ayol huquqlarining ham taraqqiyotini belgilagani xulosa qilingan. Hindistonda vedagacha boʻlgan davrda ayol va erkak teng huquqqa ega boʻlishgan. Veda davrida ham ayollar erkaklar bilan bir pogʻonada turib, qurbonlik keltirish paytlarida teng ishtirok etganlar, baravar jang qilganlar. Braxmanlik gʻoyalari tarqatilishi bilan ayolning huquqlari qisqarib, u faqat oiladagina maʼlum mavqeyini saqlab qola olgan hamda nihoyat koinlar va podsholarning istibdod (despotik) falsafasi ostida, ayollar xizmatkorga aylantirildilar.

Xitoyda esa ayol teng huquqli inson sanalmas, O'g'il bola tug'ilishi maqbul hisoblanar, qiz bolalarga esa juda past nazar bilan qarashardi. Xitoyda ayollar erkaklar bilan birga o'tirib ovqatlana olishmas, faqat churq etmay ularning barcha xohish-istaklarini bajarishardi.

Sharqda gender tenglik to'g'risidagi falsafiy g'oyalarning eng qadimgi shakllari "Avesto"dagi ijtimoiy-falsafiy, axloqiy, siyosiy qarashlarda o'z aksini topgan. "Avesto"dagi ijtimoiy masalalar faqatgina transsendentalizmga xos bo'lmasdan, u sotsiumning real ijtimoiy muammolarini qamrab olgan konstruktiv g'oyalardir.

Turon hududida qadimgi forsiyzabon va turkiy elatlarning ayolga munosabat, o'ning jamiyatdagi o'rni, sha'ni, nomusini saqlash, ayolning jamiyat rivojidagi konstruktiv roli haqidagi ma'lumotlar Gerodotning "Tarix", Strabonni "Geografiya", O'rxo'n-Enisey bitiklari va boshqa bir qator yozma yodgorliklar orqali yetib kelgan.

Qadimgi grek tarixchisi Strabonning (miloddan av. 64-63 – mil. 23-24-yillar) yozishicha, har bir massagetning o'zi bilan teng huquqli xotini bo'lgan, ular janglarda erlari bilan tengma-teng jang qilganlar¹. Ana shu tarixchining fikriga ko'ra, ayollar hayotda muayyan erkinliklarga ham ega bo'lganlar. Umuman olganda, Markaziy Osiyoda ayollarga qadimdan katta hurmat bilan qaralgan. Ular jamiyatda erkaklar bilan teng huquqlardan foydalanishgan. Gerodotning "Tarix" nomli asarida vatanparvar ayol To'maris haqida keltirilgan tarixiy ma'lumot bunga yorqin misol bo'la oladi.

Dunyoga mashhur olim Abu Nasr Farobiy ayol va erkak konsepti, ayolning mavqeyiga doir mulohazalarini mashhur "Fozil odamlar shahri" va "Baxt-saodatga erishuv haqida" asarlarida bayon etadi. Sharq mutafakkirlaridan yana biri Abu Rayhon Beruniy "Minerologiya" asarida oiladagi tinchlik-totuvlik, baxtiyorlik ko'proq ayollar zimmasiga tushishini ta'kidlaydi. Ayollar ijtimoiy mavqeyiga oid o'zining diqqatga sazovor qarashlari bilan ajralib turuvchi Sharq mutafakkirlardan biri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sinoning "Tadbiri manozil" asarida xotin-qizlarning yaxshi ijtimoiy mavqega ega bo'lishi uchun, eng avvalo, ularni bilimli, e'tiqodli, uyatchan, sharm-hayoli va tabiatan jasur qilib tarbiyalash zarurligi ta'kidlanadi.

Islomda erkak va ayolning tengligi o'ziga xos mushtarak huquqlari, imkoniyatlari bor. Hamma narsada erkak ayol teng bo'lishi mumkin emas. Islom dinida ayol va erkak insoniy tomondan aytganda barobar, lekin hayotdagi vazifasi jihatidan ular teng emas. Er-xotin o'rtasida ular o'zaro teng huquqli, lekin mustaqil imtiyozlari bor. Erkakning ham, ayolning ham burchlari barobarida huquqlari yotadi.

Qur'oni Karimda "Imon keltirganlar" iborasi ham erkaklarni, ham ayollarni anglatadi. Musulmonlar so'zi erkaklar va ayollarga ham tegishli. Alloh insonlarga xitob qilganda, erkaklar va ayollarga xitob qiladi. Islom ta'limoti ayol sha'nini ulug'laydi. Qur'oni Karimda odam so'zi 58 joyda, erkak so'zi esa 12 joyda kelgan, jami 70 marta. Boshqa tarafdin, Ayol so'zi 26 joyda, 36 joyda ona, 30 joyda onalar tilga olinadi va jami 92 marta tilga olingan. Boshqacha qilib aytganda, Erkaklarga qaraganda Ayollar va Onalar ko'proq marta zikr etilgan va suralardan biri aynan "Niso" ya'ni "Ayollar" deb nomlanishi hamda unda ayolning mavqeyi, uning

¹ Тревер К.В., Якубовский А.Ю., Воронец М.Э. История народов Узбекистана. Том 1. Т., "Фан", 1950, 56-бет.

hayotdagi o'rnini, haq-huquqlari batafsil bayon etilishi ayollarga bo'lgan e'tiborning yorqin misolidir.

G'arb falsafasida gender tenglik haqidagi qarashlarning dastlabkisi kinik va stoiklar maktabida paydo bo'ldi. Ular tenglikni axloqiy asoslashni taklif qildilar va hech qanday institutsional hokimiyat mavjud bo'lmagan, xususiy mulk va umumiy tenglikning huquqiyligi kafolatlangan jamiyat g'oyasini ilgari surganlar.

Gender muammosini yunon faylasuflardan Arastu, Aflotun, Pifagor, Suqrotlar tadqiq qilganlar. Jumladan, yunon faylasufi, matematik Pifagor o'zining ilmiy qarashlarida ayol va erkakning teng qilib yaratilgani haqida bahs yuritadi. Bunday g'oyalar Suqrot ta'limotida ham uchraydi. Suqrot shaxs erkinligi va ozodligi, inson va fuqarolar huquqi haqidagi g'oyalari bilan yoshlar ongini zaharlashda ayblanib o'limga mahkum etilgan.

Arastu ta'limotida jinslar xulqidagi me'yor tushunchalari ham turlicha: ayol uchun munosib bo'lgan xislatlar (masalan, tilini tiyish) erkak uchun munosib emas, erkak va ayol teng bo'lmagan mavjudotlar, ayollar farzandga jism, erkak esa qalb ato etadi, qalb jismga nisbatan mukammalroq, erkak kishi me'yor, ayol esa me'yordan chekinishdir, erkak o'z tabiatidan yuqori, ayol esa past, erkak hukmdor, ayol esa tobe, -deya fikr bildirgan¹.

Arastuning ayollik va erkaklik tamoyillari bir-biridan tubdan farq qiladi. Uning aytishicha, erkakning ruhiy tamoyili ayollik materialiga shakl beradi, unga harakat beradi, ruhni olib keladi. Shuning uchun u yangi hayotni yaratishda katta rol o'ynaydi. Arastu hayotni yoki ruhni tana bilan bog'laydi. Uning fikricha, ayol tanasi erkaklarnikiga qaraganda sovuqroq, shuning uchun ayollarning ruhi kamroq va erkaklarnikiga qaraganda ancha kam yashaydi. Arastuning bu hukmi qadimgi jamiyatning haqiqiy demografik holatini aks ettiradi. Haqiqatan ham ayollarning umr ko'rish davomiyligi erkaklarnikiga qaraganda ancha past edi. Demak, ayol erkak bilan solishtirilganda o'ziga xos ijodning bir turi, tugallanmagan erkakdir².

Aflotun o'zining "Bazm", "Davlat", "Qonunlar", "Timey" va boshqa asarlarida jinslarning teng huquqliligi to'g'risida fikrlari, oila, nikoh haqidagi mulohazalarini bayon etadi. Xususan, Aflotunning ayollarga munosabati bir-biriga zid bo'lgan fikrlar bilan ifoda etilgan. Bir tomondan, ular juda salbiy, chunki u ayollarni tuban mavjudot, deb bilar edi. Erkaklarning ayollarga bo'lgan muhabbatini erkakning erkakka bo'lgan hurmati, do'stligi oldida hech narsa emas, deb tushunar edi. Boshqa tomondan, Aflotun tasvirlagan mukammal davlatda ayol kishi erkak bilan bir qatorda barcha ishlarda ishtirok etishi mumkin (u birinchisini "Behayo Afrodita", ikkinchisini esa "Samoviy Afrodita" deb nomlaydi). Aflotun o'zining "Timey" asarida ayollarni ro'zg'or yumushlaridan ozod etish lozimligini ta'kidlab, ularning aqliy faoliyatini erkaklarniki bilan teng deb baholaydi, uning fikricha, ayollar faylasuf va jangchi ham bo'lishlari mumkin edi.

Nemis faylasufi I.Kant ayol va erkak o'rtasidagi farqlarni ularning ijtimoiy-siyosiy hayotga va biologik funksiyalarini bajarishiga qarab aniqlaydi. Faylasuf ayol va erkak o'rtasidagi munosabatlarni tenglik prinsiplari nuqtayi nazaridan yoritishga

¹ Aristotle. On the generation of animals // Great books of the Western world / Ed. R. M. Hutchins, 1952, p.737.

² Рябова Т.Б. Женщина в истории западноевропейского средневековья. – Иваново: 1999. - С. 212

intilsa-da, oxir natijada patriarxal talablarga yon bosadi. Ayolning reproduktiv funksiyalarini bajarishini ustun qo'yadi. Uning uchun ayol badiiy-estetik zavqlanish manbasi bo'lib qoladi.

